

## O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA FONOLOGIK QARASHLAR

*Andijon davlat chet tillari instituti*

*Xorijiy til va adabiyoti fakulteti*

*Ingliz tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi*

***Hamdullayeva Mahliyo.***

*Ilmiy rahbar: O'quv ishlari bo'yicha prorektor*

***Kurbanov Elbek Elmurodovich.***

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Fonetika bo'limi o'rganilishi, fonetikani o'rganishning nazariy va amaliy ahamiyati, fonetikaning amaliyotda qo'llanilishi haqida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Fonetika, tilshunoslik, bo'lim, tovush, tebranish, nutq tovushlari, gap, fraza, til, eski yozuv, yangi yozuv.

## ФОНОЛОГИЧЕСКИЕ ВОЗЗРЕНИЯ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКОЗНАНИИ

*Андижанский государственный институт иностранных языков*

*Факультет иностранного языка и литературы*

*Студентка направления "Английский язык и литература"*

***Хамдуллаева Махлиё***

*Научный руководитель: Проректор по учебной работе*

***Курбанов Эльбек Эльмуродович***

**Аннотация:** В данной статье представлена информация об изучении раздела фонетики, теоретическом и практическом значении изучения фонетики, а также о практическом применении фонетики.

**Ключевые слова:** Фонетика, языкознание, раздел, звук, колебание, речевые звуки, предложение, фраза, язык, старая письменность, новая письменность.

## PHONOLOGICAL VIEWS IN UZBEK LINGUISTICS

*Andijan State Institute of Foreign Languages*

*Faculty of Foreign Language and Literature*

*Student of English Language and Literature*

***Hamdullayeva Mahliyo***

*Scientific supervisor: Vice-Rector for Academic Affairs*

***Kurbanov Elbek Elmurodovich***

**Abstract:** This article provides information on the study of the Phonetics section, the theoretical and practical significance of studying phonetics, and the practical applications of phonetics.

**Keywords:** Phonetics, linguistics, section, sound, vibration, speech sounds, sentence, phrase, language, old script, new script.

**Fonologiya** (fono... va ...logiya) — tilshunoslikning til tovush qurilishining strukturaviy (tuzilmaviy) va funksional (vazifaviy) qonuniyatlarini, tilning eng mayda, ma’no bildirmaydigan birlklari — bo‘g‘inlar, fonemalarning tuzilishi va amalda qo‘llanishini o‘rganuvchi bo‘limi. Fonologiyaning fonetikadan farqi shundaki, uning diqqat markazida fizik hodisa sifatidagi tovushlarning o‘zini emas, balki ularning nutqda yanada murakkabroq ma’noli birlklar — morfemalar, so‘zlearning tarkibiy qismi sifatida bajaradigan vazifasini o‘rganish turadi. Shu tufayli fonologiyani ba’zan funksional fonetika deb ham ataydilar. Ruschex tilshunosi N. S. Trubetskoyning aniqlashicha, fonologiya bilan fonetika o‘rtasidagi o‘zaro munosabat shundan iboratki, har qanday fonologik tavsifning ibtidosi ma’no farqlovchi tovushiy ziddiyatlarni aniqlashdir; fonetik tavsif esa boshlang‘ich nuqta va moddiy asos sifatida qabul qilinadi.

Fonologiyaning asosiy birligi — fonema, asosiy tadqiqot obyekti — fonemalarning zidlanishlari (oppozitsiyalari) bo‘lib, bu oppozitsiyalar bir butun holda tilning fonologik tizimini hosil qiladi. Muayyan o‘rinda bir fonemaning ikkinchisiga qarama qarshi qo‘yilishini namoyon etuvchi so‘zlar (burborbir kabi) kvaziomonimlar (soxta omonimlar) deyiladi. Odatta, tildagi fonemalar soni kvaziomonimlar yordamida aniqlanadi va bunda biryo‘la bir fonemani ikkinchisiga qarama qarshi qo‘yish orqali ularning farqlanish elementlari tasnif etiladi. Mas, tol,sol so‘zlaridagi ikki fonema — t va s portlovchi, sirg‘aluvchi farqlanish elementlariga ega. Ularning har ikkisi ham til oldi, jarangsiz, shovqinli undoshlardir va bu belgilari farqlanmovchi elementlar deyiladi. Demak, fonema tilda o‘z vazifasini fonologik jihatdan farqlanuvchi va farqlanmovchi elementlar orqali bajaradi.

Fonologiya zamонавиј ма’нодаги mustaqil tilshunoslik fани сифатида 20-асрнинг 20—30-йиларда шаклланди; унинг юратувчилари N. S. Trubetskoy, russhveysar олими S.O.Karsevskiy, rusamerika tilshunosi R.S. Yakobsonlar bo‘lib, ular 1928-yil Gaagada bo‘lib o‘тган Tilshunoslarning 1-xalqaro kongressida fonologiyaning asosiy g‘oyalari bayon etganlar. N. S. Trubetskoyning "Fonologiya asoslari" (1939) kitobi fonologiya taraqqiyotidagi eng muhim bosqich bo‘lgan. Fonologiya paydo bo‘lishining ilk asoslari 19-asr oxirlarida nemis олими I. Vinteler va ingliz олими G. Suit asarlarida, umumnazariy jihatlari keyinchalik F. de Sossyur tadqiqotlarida шаклланган. Ayniqsa, fonologiyaning rivojlanish asoslarini yaratishga ruspolyak tilshunosi I. A. Boduen de Kurtene katta hissa qo‘shdi. Fonema g‘oyasi va uning prinsiplari ilk marta унинг

asarlarida ishlab chiqilgan. Boduen de Kurtene tadqiqotlari negizida Leningrad va Moskva fonologik maktablari shakllandi (o‘zbek tilshunoslarining fonologik tadqiqotlari ham asosan ana shu maktablar ta’sirida yaratilgan). Hozirgi kunda mazkur maktablarning fonologik nazariyalaridan tashqari Yevropa va AQShda yana 10 ga yaqin fonologik nazariyalar yaratilgan.

Fonologiya ham fonetika kabi umumiy fonologiya, xususiy fonologiya, tarixiy (dioxronik) fonologiya va tasviriy (sinxronik) fonologiyaga bo‘linadi. Umumiy fonologiya fonemaning mohiyati, fonemalar o‘rtasidagi hamda fonema va tovush o‘rtasidagi munosabatlarni, fonemaning morfema va so‘zga bo‘lgan pog‘onali munosabatini o‘rganadi; tilning fonologik (fonematik) tarkibini aniqlashning metod va tamoyillarini belgilaydi. Xususiy fonologiya, umumiy fonologiyaning metod va tamoyillariga asoslangan holda, u yoki bu tilning fonologik tizimini o‘rganadi; o‘z navbatida, umumiy fonologiyaga material beradi. Tarixiy fonologiya ma’lum bir til fonologik tizimining tarixiy taraqqiyotini, tasviriy fonologiya esa tarixiy taraqqiyot jarayonidagi muayyan bir davrning fonologik tizimini o‘rganadi.

O‘zbek tili fonologiyasini o‘rganishda Ye.D. Polivanov, V. V. Reshetov, A. Nurmonov, A. Abduazizov va boshqalarlarning ilmiy ishlari ayniqsa ahamiyatlidir.

O‘zbek tili fonologiyasining shakllanishida Ye.D.Polivanov, G‘.Yunusov, A.G‘ulom, V.V.Reshetov, A.M.Shcherbak, F.Abdullaev, Sh.Shoab-durahmonov, A.Mahmudov, S.Otamirzaeva, E.Umarov, A.Nurmonov kabi tilshunoslarning xizmati katta bo‘ldi. A.A.Abduazizov esa o‘zbek tili fonemalarini paradigmatic va sintagmatik aspektida maxsus o‘rganib, o‘zbek tili fonologiyasining rivojlanishiga salmoqli hissa qo‘shti. U o‘zbek tilshunosligida birinchi marta nutqning har bir fonetik bo‘linishida umumiylilik-xususiylik dialektikasining namoyon bo‘lishini ochib berdi, ularni izohlovchi maxsus atamalar tizimini o‘zbek tilshunosligiga Yevropa tilshunosligidan olib kirdi.

A.Abduazizov nutqni fonetik jihatdan o‘zigacha mavjud bo‘lgan barcha mualliflar kabi ibora (fraz), takt, bo‘g‘in va tovushlarga bo‘ladi. Uning boshqalardan farqi shundaki, bu birliklarni u paradigmatic qatorda bir-biriga qarama-qarshi qo‘yish mumkin bo‘lgan emik birliklarga zidlaydi: tovush - fonema, takt - taktema, bo‘g‘in - sillabema va boshqalar. Shuningdek, u segment birliklar bilan ustsegment birliklarni an'anaga ko‘ra ajratgan holda, urg‘u, intonatsiyalarni ustsegment birliklarga kiritadi. Ustsegment birliklarda umumiylilik-xususiylikni farqlamoq uchun urg‘u-aksentema, ohang-intonema atamalaridan foydalanadi. Emik birliklarni ajratishda bosh mezon qilib ma’no farqlash funksiyasi olinadi. Muayyan ma’no farqlash xususiyatiga ega bo‘lgan bo‘g‘inga sillabema (xitoy, yapon, koreys tillariga xos), tovushga fonema, urg‘uga aksentema, ohangga intonema atamalari qo‘llaniladi. Shunday qilib, fonetik birliklar (tovush, bo‘g‘in, urg‘u, ohang) bilan fonologik birliklar orasida ma’lum munosabat o‘rnataladi. Fonologik sathda umumiylilik-xususiylik dialektikasini

namoyon qilishda farqlovchi belgilar muhim rol o‘ynaydi. Xuddi shu farqlovchi belgilar fonemani fonologiya bilan bog‘lab turadi. Nutq jarayonida real talaffuz qilingan, ma’lum makon va zamonga bog‘liq tovushlarning artikulyatsion-akustik xususiyatlari (masalan, jarangli-jarangsizlik, portlovchi-sirg‘aluvchilik, paydo bo‘lish o‘rniga ko‘ra belgilari: og‘izning ochilish darajasi, lab ishtiroki va boshqalar) fonetikada aniqlanadi. Fonologiya esa fonemalarni belgilashda ana shu artikulyatsion-akustik xususiyatlarga farqlovchi belgi sifatida qaraydi. Ko‘rinadiki, fonetika fonologiyaga material beradi, fonologik xulosalar fonetika materiallariga tayanadi. A. Abduazizov to‘g‘ri ta’kidlaganidek, fonetik tasnif fonemalarning barcha artikulyatsion-akustik xususiyatlariga asoslansa, fonologik tasnif shu xususiyatlar ichidan asosiysini tanlab oladi: ularga funksional jihatdan qarab, farqlanish belgilarini topadi. Fonemalarni artiku-lyatsion-akustik jihatdan farqlashga xizmat qiluvchi alomatlar farqla-nish belgilari hisoblanadi. Fonema ana shunday belgilarning yig‘indisi sifatida tushuniladi.<sup>1</sup> Farqlanish belgilari esa fonemalarni so‘z va morfema tarkibida bir xil sharoitda solishtirish orqali namoyon qilinadi. Avvalo, fonemalar artikulyatsion-akustik va funksional jihatdan ikki katta guruhga bo‘linadi: 1) unlilar, 2) undoshlar. Har ikki guruh yuqoridagi uch belgiga ko‘ra o‘zaro zidlanadi. Birinchi belgisiga ko‘ra fonemalar talaffuz qilinganda, nutq organlarining og‘iz bo‘shlig‘ining ma’lum bir joyida bir-biriga yaqinlashishi, havo oqimining to‘sinqqa uchrash-uchramasligi e’tiborga olinadi. To‘sinqqa uchraydiganlar undosh, to‘sinqqa uchramaydiganlar esa unlilar sanaladi. Ikkinci belgisiga ko‘ra fonemalar ovoz yoki shovqindan iboratligi e’tiborga olinadi: ovozdan iborat bo‘lsa unlilar, shovqindan iborat bo‘lsa, undoshlar hisoblanadi. Bu belgiga binoan sonorlar ham unlilar bilan bir guruhni tashkil qiladi. Uchinchi belgiga ko‘ra bo‘g‘in hosil qila olishlik-qila olmaslik belgisi hisobga olinadi: bo‘g‘in hosil qiladiganlar, bo‘g‘in hosil qilmaydiganlar. Unli fonemalarning farqlovchi belgilari bilan undosh fonemalarning farqlovchi belgilari bir xil emas. Shuning uchun unli va undosh fonemalar sistemalarida umumiylit-xususiylik dialektikasining namoyon bo‘lishini alohida-alohida ko‘rib chiqamiz.

#### **Foydalilanigan adabiyotlar:**

1. Xolmanova Z. Tilshunoslik nazariyasi (Darslik) – T., “Nodirabegim”, 2020. 256 b.
2. Sayfullayeva R. va boshqalar. Hozirgi o‘zbek tili (Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020. – B. 127-128.
3. Abuzalova M, Yo‘ldosheva D. Tilshunoslikka kirish. – T., 2005.
4. Azizov O. Tilshunoslikka kirish. – T., 1996.
5. Axmanova O.S. Fonologiya. – M., 1954.